

**YOSHLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI  
OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH**

*Toshmatova Gulnoza Mirzaali qizi*

*Andijon shahar 43-maktab psixologi*

*Annotatsiya: Ma`lumki. yosh avlodni jismonan baquvvat, ma`naviy ruhiy jihatidan sog`lom qilib tarbiyalash, hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.*

*Kalitsa`zlar: Tarbiya, ota-ona, farzand, oila, individual, muhit.*

Ma`lumki XXI-asr axborot texnologiyalari asri bo`lganligi bois, shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda.

So`nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan isloxotlar natijasida yosh avlodni barkamol, aqlan yetuk, ruhan va jismonan sog`lom etib milliy qadiryatlarimiz asosida hayotga va turmushga tayyorlashga judda kata e`tibor qaratilmoqda. Jumladan yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko`rsatish respublika markazi tashkil etilishining ko`zda tutilganligi ham bunga yaqqol misol bo`la oladi. Jamiyatimizda oilani va yoshlarning ongini mustahkamlash shuningdek, oilani jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari kabi yurtimizdagi ma`naviy o`zgarishlar bilan uyg`un tarzda, milliy qadiryatlarimiz asosida rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muxim yunalishi sifatida doimiy e`tibor berib kelinmoqda. Globallashuv jarayonida yoshlarimizni ommaviy madaniyat ta`siriga tushib qolishidan, ularni ongini g`arb mentalitetidan himoyalagan holda sharqona urf-odatlar, Milliy qadiryatlar, yuksak ma`naviyatga boy bo`lgan fikrlar bilan boyitib boorish oldimizda turgan dolzarb masaladir.

Hech birimizga sir emaski so`nggi yillarda yoshlarimizni yomon yo`lga kirib ketishlari, qizlar o`rtasida xuquqbuzarlik va erta tug`ruq xolatlari ko`plab uchrash holatlari, eng achinarlisi oddiy xolga aylanib borayotganligi, milliylikdan

chekingan holda ommaviy madaniyatga mos ravishda kiyinishlari va yosh oilalarda ajrim holatlari judda ham ko'p uchrayotganligi barchamizni birdek tashvishga solmoqda. O'z navbatida yoshlarni bunday holatlarga tushib qolishlarga nima sabab bo'lmoqda degan savol paydo bo'ladi. Ushbu savolga javob beradigan bo'lsak, yoshlarni bunday achinarli holatlarga tushib qolishlariga birinchi o'rinda oiladagi tarbiya qolaversa, globallashuv jarayonida submadaniyatni yoshlar hayotiga shiddat bilan kirib kelishi, bozorlarimizni g'arb mintalitetiga hos bo'lgan kiyimlar bilan to'lib borayotgani, ijtimoiy tarmoqlar va televideniya orqali namoish etilayotgan turli hil seriallar sabab bo'lmoqda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan informatsiyalar insoniyatning psixologiyasiga ta'sir etmoqda. Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'I mavjud insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu esa bizning o'tish davridagi o'sib kelayotgan o'smir yoshlarimizni be'etibor qoldirmaydi. Shunday ekan oiladagi, mahalladagi, maktabdagi ta'lim-tarbiyaning o'rni benihoya kattadir. Umuman olganda hozirgi kunda o'quvchi-yoshlar o'rtasida qanday ijtimoiy-psixologik muammolar mavjudligini sanab o'tsak. O'quvchi-yoshlar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar quyidagilar:

- Tushkunlik
- Stressga tushish
- Tajavvuzkorbo'lib qolish
- O'z-o'ziga ishonchsizlik
- O'z-o'ziga yuqori baho berish
- Yakkalanib qolish
- Hayotdan sovib ketish
- Irodasizlik
- O'g'irlik, ichkilik
- Chekishga ruju qo'yish
- O'z joniga suiqasd qilish

- Yot g`oyalarga berilish
- Ommaviy madaniyatga berilish
- Jinoyat qilish
- G`oyaviy bo`shliq mavjudligi

Afsuski bu jumalarni yana ko`proq davom ettirsak bo`ladi. Bularning barchasi ota-onaning noto`g`ri tarbiyasi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onaning ajrashishi, moddiy etishmovchilik, boshqalardan ajralib turadigan nuqson mavjudligi, nosog`lom oila, atrof-muhitning, ustozining, tengdoshlarining salbiy ta`siri natijasida kelib chiqadi. Shu o`rinda ota-onaning ayrim hollarda yo`l qo`yadigan xatolarini ko`rib chiqsak: Ota-ona: Bolamni hech kimdan kam qilmay deb, hech narsaga zoriqtirmay deb farzandini qarindoshlarning qo`liga tashab, chet elga pul topish maqsadida ketadi. Lekin bolasining tarbiyasi o`zgarayotganini, ularning ota-ona mehriqga to`ymayotganligini sezishmaydi. Bu bolada salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Yoki turmush sinovlariga bardoshlari etmay, ota-onaning ajralishi, bolalarning tirik etim bo`lib qolishi, otalarning ichkilikka ruju qo`yishi va bolalarning tarbiyasiga e`tibor bermaslik. Bu kabi misollarni ko`plab keltirishimiz mumkin. Chunki hozirgi kunda oida bu kabi hollar ko`plab uchrab turibdi. Nima uchun oilaga ko`p to`xtalyapmiz, boisi, farzand ko`p vaqtini oilada o`tkazadi. Bizning xalqimiz bolajon ko`p bolali xalq bo`lgani boisi oilada farzandlar ko`p bo`lishi odatiy holdir. Afsuski ota onalarimiz farzandlarini tarbiylash davomida boshqa bolasi bilan yoki tengdoshlari bilan solishtirishi farzandlar o`rtasida o`zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo`ladi.

Ayrim hollarda kuzatamiz ota-ona farzandi bilan birgalikda turli saviyasiz, ma`nosiz, urush-o`limni targ`ib qiluvchi turk seriallarini tomosha qilib o`tirishadi. Farzand bu kinolardan to`g`ri xulosa chiqaradi deb kim kafolat bera oladi? Farzandni mehnatga o`rgatish ham tarbiya hisoblanadi. Agar bola maktabga borsa, uy ishlari bilan shug`ullansa, charchashi va dam olishi mumkin. Bekorchi narsalarga bo`sh vaqti qolmaydi. Xuddi shuningdek, farzand tarbiyasiga ota-ona bilan birgalikda ularning ustozlari hamda psixologlar ham birdek

mas`uldir. Ularning tarbiyasida ota-ona kabi pedagog hodimlar ham ayrim kamchiliklarga yo`l qo`yishi mumkin. Sinfda barcha o`quvchining oldida haqorat qilishi, tanbeh berishi, barcha o`quvchilarni bir ko`zda ko`rmasligi va hakazo. Jamoadoshlar ichida aytishgan bunday tanbehlar yoki haqoratlar o`smir yoshlarda yuzaga keladigan stress depressiya yoki bo`lmasa suitsitgacha bo`lgan o`g`ir hollarga olib kelishi mumkin “Barchaning oldida berilgan nasixat bu kamsitilish bilan barobar” deyishadi . Shuning uchun pedagog hodimmi yoki psixologmi o`smir bilan individual suhbatlashishi lozimdir.

Yoshlar bilan ishlashda har bir yoshning o`ziga xos individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlash lozim. Individual yondashuvning vazifalari bola rivojlashini individual usullari, imkoniyatlari, shaxsiy faolligini oshirish, uni shaxsini betakrorligini ochib berishdan iboratdir. Muhimi bolani o`ziga xos individual xususiyatlari bilan kurashish emas, balki ularni rivojlantirish, bolani potentsianal imkoniyatlarini o`rganish va tarbiyaviy ishlarni individual rivojlantirish printsipli bo`yicha qurish lozim. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat`iy nazar uning qiziqishlarini hisobga olib unga ochiq ko`ngillik bilan munosabat o`rnatish lozim. Shu bilan bir qatorda ota-onalar ham farzandlari uchun qilishi mumkin bo`lgan eng muhim narsa, ular farzandlarini doimo qo`llab quvvatlashlarini bildirishidir, farzandlari doimo ota- onasi ularni qadrlashi, sevishi hamda g`amxo`rlik qilishlarini bilib o`sishi lozim. Shunda yoshlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy psixologok muammolar biroz bo`lsada kamayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Xalilova. “Ta`limda boshqaruv psixologiyasi”, Toshkent-2011.
2. Kamilova N.G. “Muammoli o`smir: tashxis, tadqiqot metodlari.” O`quv qo`llanma. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU. 2004.
3. G`oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). O`quv qo`llanma Toshkent. O`qituvchi 1994